

**GELMINTLAR ULARNI DAVOLASH VA OLDINI OLISH CHORA  
TADBIRLARI**

*Sodiqova Jamilaxon Soipovna*

*Xo'jaobod Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi  
tibbiyot parazitologiyasi fani o'qituvchisi*

**Gelmintlar** (Helminthos. yun. helmins, helminthos — chuvalchang, gijja) — har xil sistematik guruhlarga mansub parazit chuvalchanglar guruhi. Gelmintlarga 5 tipga mansub jonivorlar, jumladan yassi chuvalchanglardan monogeneyalar, so'rg'ichlilar, tasmasimon chuvalchanglar va sestodsimonlar; to'garak chuvalchanglardan nematodalar va qilchuvalchanglar; halqali chuvalchanglardan zuluklar; tikanboshlilar, nemertinlar hamda sistematik o'rni to'liq aniqlanmagan ortonektidlar va ditsiyemidlar kiradi Gelmintlar ekologik guruh bo'lib, juda xilma-xil jonivorlarni o'z ichiga oladi. Teri-muskul xaltasi, tana organlarining uchta embrional varaqdan hosil bo'lishi; tanasi oldingi qismining ixtisoslashib, yopishuv yoki sezgi organlari hosil qilishi hamda bilateral simmetriyalik hamma Gelmintlar uchun xos bo'lgan umumiy belgi hisoblanadi. Parazitlik qilish xususiyatiga binoan Gelmintlarni statsionar va fakultativ parazitlarga ajratiladi. Birinchi guruhga odam, hayvon va o'simlik parazitlari (tasmasimon chuvalchanglar, trematodlar, tikanboshlilar va ko'pchilik nematodalar); ikkinchi guruhga — ko'pchilik zuluklar, ayrim kiprikli chuvalchanglar va nemertinlar kiradi. Lichinkalik davrida hasharotlar tanasida parazitlik qiladigan, voyaga yetgan davrida esa erkin yashaydigan qilchuvalchanglar Gelmintlarning o'ziga xos guruhini hosil qiladi. Parazitlik qiladigan joyiga binoan Gelmintlar tashqi — ekto-parazitlar (monogeneyalar, ko'pchilik zuluklar, nemertinlar va turbellariyalarning bir qismi) hamda endo-parazitlar (ko'pchilik gelmintlar)ga ajratiladi.

Parazit hayot kechirish ta'sirida Gelmintlarning harakatlanish, xo'jayin tanasidan tashqarida faol oziq qidirish xususiyatlari yo'qolgan; bir qancha turlarida hazm sistemasi reduksiyaga uchragan. Buning o'rniga yopishuv organlari rivojlanib, pushti keskin oshgan, rivojlanish sikli murakkablashib, ko'plab potensial xo'jayinlarni zararlashga imkon beradigan bo'lgan. Gelmintlar lichinkasi ko'pincha to'la-to'kis yoki

qismai asosiy xo‘jayin organizmidan tashqarida rivojlanadi. Rivojlanish xususiyatiga binoan Gelmintlar geogelmintlar va biogelmintlarga ajratiladi. Geogelmintlar tashqi muhitda, biogel-mintlar boshqa hayvonlar — oraliq xo‘jayin organizmida rivojlanadi. Ayrim biogelmintlar oraliq xo‘jayindan tashqari qo‘shimcha, hatto rezerv xo‘jayinga ham ega bo‘ladi. So‘rg‘ichlilar va tasmaimon chuvalchanglar sinfiga mansub bir qancha Gelmintlarda jinsiy ko‘payish bilan birga lichinkalik partenogenez ham uchraydi. Jinsiy va jinssiz gallanib ko‘payish turning saqlanib qolish imkoniyatini oshiradi. O‘zbekistonda umurtqali hayvoilarda 1000 dan ortiq Gelmintlar parazitlik qiladi

### **Gelmentlar — tana parazitlari**

Odam va hayvonlarning a‘zo va to‘qimalari hisobiga yashovchi mayda chuvalchanglar – gijjalar (gelmintlar), ular keltirib chiqaradigan kasalliklar gelmintozlar deyiladi. Insoniyatga gelmintozlar juda qadim zamonlardan ma‘lum bo‘lib, ular barcha parazit kasalliklarning 90 foizni tashkil qiladi.

Kasallik manbai bemor odam va [gijjalar](#) bilan zararlangan hayvonlar hisoblanadi. Qo‘zg‘atuvchining turi, yuqish yo‘li va yuqish omillariga ko‘ra gelmintozlar uchga

**Geogelmintozlar:** Bu turdagi gelmintozda lichinkalarning yuqumlilik bosqichiga qadar yetilish jarayoni tuproqda yuzaga keladi.

### **Asorati- Siz o‘ylagandan ham og‘ir dard.**

Gijjalar inson organizmiga zaharli ta‘sir ko‘rsatadi. Shuningdek, ular [allergik reaksiyalarni](#) keltirib chiqaradi. Yana organizmning har xil yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish qobiliyatini pasaytiradi. To‘qima va qon tomir devorlarini mexanik shikastlanishiga sabab bo‘ladi. Odam tanasiga tushgan vitaminlar va mineral moddalarni o‘zlashtiradi. Ular asab tizimiga ham katta salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

### **Kasallik belgilari**

Gijja kasalligiga chalingan bemorlarda holsizlik, tez charchash, bosh og‘rig‘i, qorin sohasida og‘riq, ko‘ngil aynishi, asabiylik, allergik toshmalar va terida har xil dog‘larning paydo bo‘lishi kabi klinik belgilar kuzatiladi. Ushbu dard o‘z vaqtida to‘liq davolanmasa yosh bolalarda jismoniy va aqliy rivojlanishning ortda qolishi, epileptik tutqanoq kasalligi kabi jiddiy asoratlarni kelib chiqishiga sabab bo‘ladi.

Bundan shunday xulosa qilish mumkin, ya‘ni gelmintoz nafaqat alohida a‘zo, balki butun organizmning og‘ir dardi bo‘lib, uning belgilari paydo bo‘lganda o‘z vaqtida shifokorga murojaat etish zarur.

### **Xastalikdan saqlanish yo‘llari.**

Kasallikni davolagandan ko‘ra uning oldini olish muhim hisoblanadi. Gelmintozning oldini olishda shaxsiy gigiyena qoidalariga qat‘iy rioya qilish shart. Har bir odam o‘zining shaxsiy gigiyena vositalariga ega bo‘lishi lozim. Ovqatlanishdan oldin, hojatxonaga kirib-chiqqach, eshik tutqichlarini ushlagach, tuproq bilan ishlagandan so‘ng va bolalar ko‘chada o‘ynab kelganda qo‘lni sovun bilan yaxshilab yuvish lozim. Sh

uningdek, tirnoqlarni kalta qilib olish zarur. Polizda, bog‘da ishlash vaqtida qo‘lni og‘izga solishdan saqlanish kerak. Ayniqsa, qo‘lni og‘izga tiqish kabi salbiy odat ko‘pincha yosh bolalarga xos.

***Gijja tuxumlarini meva-sabzavotlar va ko‘katlar orqali yuqishini oldini olish uchun ularni oqar suvda yaxshilab yuvish shart. Ko‘katlarni avval sho‘r suvda ivitib qo‘yib, keyin oqar suvda obdon yuvib, so‘ngra iste‘mol qilish tavsiya etiladi.***

Uyda va maktabgacha ta‘lim muassasalarida bolalarni parvarish qilishda ishlatiladigan buyumlar va o‘yinchoqlarning toza saqlanishiga doim e‘tibor qilish zarur. Bolalar tuvagi, stullar, o‘yinchoqlar, hojatxona eshigi va poli har kuni zararsizlantiruvchi vositalar yoki qaynoq suv bilan yaxshilab tozalanishi shart. Havodagi chang bilan birga gijja tuxumlarini og‘iz va nafas olish yo‘llari orqali organizmga tushishini oldini olish maqsadida xonalarda muntazam namli tozalash ishlari olib borilishi, hovlilar suv sepib s upirilishi maqsadga muvofiqdir.

Ochiq suv havzalari suvini faqat qaynatib ichish, har doim yaxshi pishirilgan va qovurilgan go‘shni iste‘mol qilish talab etiladi.

**Gelmintoz kasalligi belgilari paydo bo‘lganda darhol mutaxassisga murojaat qilish darkor. Yana tegishli laboratoriya tahlillarini topshirish va uning natijalari asosida shifokor maslahati bilan o‘z vaqtida davolash kurslarini to‘liq amalga oshirish bemorning ushbu dardni jiddiy asoratsiz yengib tezda oyoqqa turib ketishiga sabab bo‘ladi.**

### Gelmintozdan qanday qutilish mumkin?

— Gelmintozning kelib chiqish sabablari qanday? — Parazitlar lichinkalari va tuxumlarining atrof muhitda keng tarqalganligi va shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilmaslik gelmintlar bilan kasallanishning asosiy sabablari bo‘lib hisoblanadi.



Gelmintlarning tuxumi zararlangan insonlar va hayvonlarning axlati bilan tashqariga chiqadi. Bolalar meva- sabzavotlarni yuvmasdan yeyishi, o‘yinchoqlarini, o‘quv qurollarini og‘ziga solishi natijasida gijja bilan zararlanadi.

Hojatga borgandan so‘ng insonda gijja tuxumlari qo‘l terisida, tirnoqlar ostida yoki kiyimida qolishi mumkin. Ko‘pincha bolalar odamlar ko‘p to‘planadigan joylar (bolalar bog‘chasi, maktab, bolalar maydonchasi)da gijjalarni yuqtirib olishi mumkin. Gijjalar bilan zararlanishning quyidagi sabablari ham bor:

- sifatsiz suv va ovqatni iste‘mol qilish;
- boshqalarning shaxsiy buyumlaridan foydalanish (sochiq, ichki kiyim kabilar);
- sabzavot va mevalarni yaxshilab yuvmasdan iste‘mol qilish;
- bolaning uy va ko‘chadagi hayvonlar bilan yaqin muloqot qilishi.

— Kasallik qanday tashxislanadi?

— Gelmintlarning spetsifik simptomatikasi yo‘qligi sababli ko‘pincha ota-onalar bolada jiddiy kasalliklarga shubha qilib, boshqa turli mutaxassis (pulmonolog, allergolog, immunolog)larga murojaat qiladilar.

Surunkali dermatitlar, gastroenterologiya patologiyalari va o‘pka kasalliklari bo‘lgan bolalar, albatta, gelmintlarga tekshirilishi lozim.

Chunki gelmintlar odatda ichaklarda ustunlik qiladi, ularni aniqlash uchun, birinchi navbatda, najas tahliliga yuboriladi.

Tahlil bolaning oshqozon traktida parazitlarning mavjudligi, shuningdek, uning turini aniqlashga yordam beradi.

### **Davo choralari**

— Samarali davo parazitlar rivojlanishining barcha fazalarida ular bilan kurashish, noxush simptomlarni bartaraf etish va bola organizmini tiklashga yo‘naltirilgan. Buning uchun, birinchi navbatda, bemorga gijjalarga qarshi preparatlar tanlanadi.

Ushbu vositalar parazitlarning mushak va asab tizimini bloklash va ularni organizmdan tabiiy yo‘l bilan chiqarib tashlashga yordam beradi.

Shuni ta‘kidlash lozimki, oilaning barcha a‘zolarida bir vaqtning o‘zida terapiyani o‘tkazish kasallikni samarali davolashga imkon beradi.

— Qanday profilaktika choralarini tavsiya etasiz?

— Gijjalar bilan zararlanmaslik uchun quyidagi qoidalarga amal qilish talab etiladi:

- bolada shaxsiy gigiyena ko‘nikmasini imkoni boricha erta shakllantirish;
- doimo bolaning qo‘llari tozaligiga e‘tibor qaratish;
- faqat toza suv iste‘mol qilish;
- iste‘mol qilishdan avval sabzavot, mevalar va ko‘katlarni yaxshilab yuvish;
- go‘sht va baliq mahsulotlariga zarur termik ishlov berish;
- uy hayvonlarini o‘z vaqtida emlash va ularni degelmintizatsiya qilish.

Agar ota-onalar bolada gijja borligiga shubha qilsalar, kechiktirmasdan mutaxassis ko‘rigiga borishlari zarur. Shifokorlar gelmintozlarni tezda tashxislash va tegishli davoni tavsiya etishda yordam ko‘rsatadilar.

### **Adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublika SSVning Sanitariya Qoida va Me‘yorlari, buyruqlari 2005-2017 yillar
2. Aholining sanitariya- epidemiologik osoyishtaligi to‘g‘risida qonuni, T. 2015 yil
3. M.A.Bo‘ronov, K.M.Mirjonov “Tibbiyot parazitologiyasi va entomologiya asoslari”, Toshkent, “Ilm ziyo” nashriyoti, 2004 yil
4. Fayziyev Y.M., Fayziyeva X.A. “Epidemiologiya va tibbiy parazitologiya»
5. Toshkent, “Ilm ziyo” nashriyoti, 2007 yil
6. Melnichenko P.I., Arxangelskiy V.I., Kozlova D.A. “Gigiyena s osnovami ekologii cheloveka” darslik, Moskva - 2010

### **Internet manbalari:**

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz),
2. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).,
3. [www.google.uz](http://www.google.uz),